



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*


*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapdi.

Jumladan, 2024-yil 1-avgust holatiga respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 24 321 tani tashkil etib, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20 386 tani tashkil etdi.


*Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar
fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar


2024-yil yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 2 229 tani tashkil etdi. Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024-yil yanvar-iyul oyida mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 1 727 tani, oilaviy korxonalar 271 tani tashkil etgan.

Hududlar kesimida

Nukus sh.	574	9,3 %	Chimboy	81	7,3 %
To'rtko'l	216	8,5 %	Mo'ynoq	68	10,7 %
Beruniy	207	9,9 %	Qonliko'l	62	9,2 %
Ellikqal'a	197	10,9 %	Kegayli	54	7,0 %
Amudaryo	176	8,4 %	Taxiatosh	52	7,0 %
Qo'ng'iro't	137	9,6 %	Bo'zotov	47	11,7 %
Xo'jayli	103	8,3 %	Taxtako'pir	42	8,8 %
Shumanay	89	16,3 %	Qarao'zak	41	6,1 %
Nukus	83	9,0 %			

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

jamiga nisbatan ulushi


2024-yil 1-avgust holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yilning mos davriga (19 876 ta) nisbatan 4 445 taga ko'payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 4 761 tadan 7 248 taga (o'sish 2 487 ta), sanoat – 2 546 tadan 3 174 taga (o'sish 628 ta), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 547 tadan 2 827 taga (o'sish 280 ta).

Hududlar kesimida


Nukus sh.	6 160	Kegayli	773
To'rtko'l	2 551	Taxiatosh	743
Amudaryo	2 089	Qorao'zak	677
Beruniy	2 081	Qonliko'l	674
Ellikqal'a	1 808	Mo'ynoq	636
Qo'ng'irot	1 431	Shumanay	547
Xo'jayli	1 247	Taxtakopir	475
Chimboy	1 108	Bo'zotov	401
Nukus	920		

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2024-yil yanvar-iyul oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan axborot va aloqada 107 tadan 118 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Nukus sh.	533	10,3 %	Chimboy	75	8,4 %
To'rtko'l	211	9,3 %	Mo'ynoq	66	12,5 %
Ellikqal'a	188	12,2 %	Qonliko'l	59	10,7 %
Beruniy	201	11,3 %	Kegayli	49	7,9 %
Amudaryo	170	9,5 %	Taxiatosh	49	8,1 %
Qo'ng'irot	130	11,0 %	Bo'zatov	43	13,2 %
Xo'jayli	96	9,1 %	Taxtakopir	40	11,3 %
Shumanay	87	20,6 %	Qarao'zek	37	6,9 %
Nukus	77	10,0 %			

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Tumanlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Nukus shahrida (25,3 foiz), To'rtko'l (11,2 foiz), Beruniy (8,7 foiz), Amudaryo (8,8 foiz) va Ellikqal'a (7,6 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu tumanlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.

Hududlar kesimida


Nukus sh.	5 162	Kegayli	624
To'rtko'l	2 275	Taxiatosh	604
Amudaryo	1 788	Qonliko'l	550
Beruniy	1 779	Qorao'zak	539
Ellikqal'a	1 540	Mo'ynoq	529
Qo'ng'iro't	1 178	Shumanay	423
Xo'jayli	1 053	Taxtako'pir	355
Chimboy	892	Bo'zotov	325
Nukus	770		

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Amudaryo	366
To‘rtko‘l	306
Nukus	295
Beruniy	248
Chimboy	163
Kegayli	160
Qonliko‘l	159
Qo‘ng‘irot	159
Ellikqal‘a	151
Xo‘jayli	144
Mo‘ynoq	111
Qorao‘zak	107
Bo‘zotov	106
Nukus sh	94
Taxtako‘pir	94
Shumanay	85
Taxiatosh	79



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh.	596
Amudaryo	335
To'rtko'l	306
Ellikqal'a	302
Beruniy	257
Qo'ng'iro't	207
Xo'jayli	177
Chimboy	169
Qorao'zak	135
Mo'ynoq	123
Taxiatosh	112
Nukus	102
Kegayli	91
Taxtakopir	78
Qonliko'l	73
Shumanay	62
Bo'zotov	49



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarining o'sish sur'ati 93,2 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalarini soni jami korxonalar va tashkilotlarning 13,0 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,3 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 93,3 foiz); 5,2 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish 95,4 foiz); 2,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (o'sish 116,0 foiz) va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish 85,2 foiz) tashkil etgan.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh	691
To'rtko'l	153
Ellikqal'a	131
Xo'jayli	92
Beruniy	91
Nukus	81
Amudaryo	77
Qo'ng'iro't	74
Taxiatosh	60
Kegayli	46
Qorao'zak	44
Chimboy	40
Qonli'ko'l	36
Mo'ynoq	30
Shumanay	25
Bozatov	16
Taxtako'pir	15



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan.

Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1 foizni tashkil etgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 28,8 foiz ulushni va 98,7 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.
- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 54,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,7 foizni tashkil etgan;

291



Fuqarolik
obyektlarini qurish

491

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

920


Bino va
inshootlar qurish



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh	1 944
To'rtko'l	892
Beruniy	721
Amudaryo	625
Ellikqal'a	553
Qo'ng'iro't	389
Xo'jayli	386
Chimboy	332
Taxiatosh	241
Kegayli	190
Shumanay	182
Qonliko'l	181
Nukus	157
Mo'ynoq	154
Qarao'zak	132
Taxtakopir	96
Bo'zotov	73



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,9 foizi yoki 7 244 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 64,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati, 99,3 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 25,2 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 103,5 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 10,7 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 108,3 foizga oshgan.

778

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1 823

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


4 647

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh	365
Amudaryo	161
To'rtko'l	133
Ellikqal'a	117
Qo'ng'iro't	107
Beruniy	100
Xo'jayli	57
Chimboy	50
Mo'ynoq	36
Kegayli	33
Qarao'zak	33
Qonliko'l	33
Taxiatosh	29
Shumanay	22
Nukus	21
Bo'zotov	14
Taxtako'pir	12



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 111,4 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 6,8 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 93,2 foiz ulushini tashkil etdi.

90

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 233


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh.	236
Chimboy	34
Beruniy	32
Qo'ng'iro't	26
To'rtko'l	22
Ellikqal'a	22
Amudaryo	21
Xo'jayli	20
Nukus	17
Kegayli	16
Taxiatosh	10
Mo'ynoq	9
Qorao'zak	9
Qonliko'l	7
Shumanay	7
Taxtak'o'pir	6
Bo'zotov	3



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 20,9 foizini tashkil etdi;

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 23,4 foizi ulushni tashkil etdi;


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 55,7 foizini tashkil etdi.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Nukus sh	188
Beruniy	44
Amudaryo	39
Ellikqal'a	41
To'rtko'l	36
Qo'ng'iro't	34
Xo'jayli	31
Taxiatosh	18
Chimboy	18
Nukus	15
Kegayli	14
Taxtakopir	7
Moynoq	5
Qonliko'l	4
Qarao'zak	4
Shumanay	4
Bo'zotov	1



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning – 503 ta yoki 2,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

95,8 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,4 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 63,2 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,8 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 112,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

9



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

12




Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

482

Hududlar kesimida *2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda*

Nukus sh.	292
To'rtko'l	158
Qo'ng'iro't	67
Beruniy	64
Amudaryo	62
Ellikqal'a	56
Xo'jayli	41
Chimboy	34
Kegayli	22
Mo'ynoq	21
Qorao'zak	20
Nukus	17
Taxiatosh	14
Taxtako'pir	12
Bo'zotov	7
Shumanay	6
Qonliko'l	5



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami respublikadagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,7 foiz ulushini tashkil etdi.

Quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 83,4 foiz ulushni tashkil etdi;

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining 14,7 foiz ulushni tashkil etdi;

Pochta va kuryerlik yo'nalishi 1,6 foiz ulushni tashkil etdi;


Havo transporti yo'nalishida tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar 0,2 foiz ulushni tashkil etdi;

Suv transporti yo'nalishidagi korxonalar 0,1 foiz ulushni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Hududlar kesimida

Nukus sh.	488	Nukus	62
Beruniy	172	Kegayli	49
Amudaryo	153	Mo'ynoq	49
Ellikqal'a	132	Qonliko'l	43
To'rtko'l	125	Bo'zotov	43
Qo'ng'iro't	111	Taxiatosh	37
Shumanay	71	Qorao'zak	31
Xo'jayli	70	Taxtakopir	24
Chimboy	67		

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 20 463 tijorat korxonasi va tashkilotlarining 15 836 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Nukus sh.	4 382	Kegayli	553
To'rtko'l	1 568	Qorao'zak	463
Beruniy	1 399	Mo'ynoq	444
Amudaryo	1 354	Taxiatosh	401
Ellikqal'a	991	Qonliko'l	319
Xo'jayli	841	Bo'zotov	297
Qo'ng'iro't	874	Shomanay	294
Chimboy	774	Taxtako'pir	227
Nukus	655		

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar


Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 91,5 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Nukus sh.	460	Qonliko'l	82
Ellikqal'a	323	Xo'jayli	79
Beruniy	202	Taxtakopir	51
To'rtko'l	192	Kegayli	43
Qo'ng'iro't	175	Qorao'zak	41
Amudaryo	109	Mo'ynoq	40
Taxiatosh	103	Nukus	31
Shumanay	97	Bo'zotov	8
Chimboy	83		

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi




Oilaviy korxonalar – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 91 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

Hududlar kesimida


To'rtko'l	490	Nukus	64
Amudaryo	299	Taxtakopir	61
Nukus sh	295	Mo'ynoq	39
Ellikqal'a	204	Shumanay	31
Beruniy	148	Qorao'zak	25
Xo'jayli	120	Kegayli	18
Qonliko'l	117	Chimboy	18
Qo'ng'iro't	95	Bo'zotov	11
Taxiatosh	87		

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

jamiga nisbatan ulushi



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Keyingi besh yilda chet el investitsiyasi ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 158 dan 175 taga yoki 110,7 foizga oshgan.

Hududlar kesimida

Nukus sh.	46	Bo'zotov	7
Mo'ynoq	29	Taxiatosh	6
Qo'ng'iroq	15	Ellikqal'a	6
To'rtkol	10	Beruniy	6
Nukus	9	Kegayli	5
Amudaryo	8	Taxtakopir	4
Xo'jayli	7	Shumanay	2
Qonliko'l	7	Chimboy	1
Qorao'zak	7		

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

chet el korxonalar

qo'shma korxonalar



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 77 tasi qo'shma korxonalar, 98 tasi chet el korxonalarini hisobiga to'g'ri keldi.



Xitoy Xalq Respublikasi



Rossiya Federatsiyasi



Qozog'iston Respublikasi



Turkiya Respublikasi



Janubiy Koreya



Boshqa davlatlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

chet el korxonalar

qo'shma korxonalar

27	Nukus sh.	19
18	Mo'ynoq	11
9	Qo'ng'iro't	6
7	Nukus	2
5	Taxiatosh	1
3	To'rtko'l	7
4	Qonliko'l	3
6	Amudaryo	2
2	Ellikqal'a	4
3	Qorao'zak	4
3	Xo'jayli	4
2	Kegayli	3
3	Taxtako'pir	1
3	Beruniy	3
2	Shumanay	-
1	Bo'zotov	6
-	Chimboy	1

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma turidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.qrstat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



Statistik registrlarni yuritish boʻlimi
Tel.: (61) 222-78-37